

**XIX ASR OXIRI XX ASR BIRINCHI CHORAGIDA TURKISTON
HUDUDIDA IJTIMOIY IQTISODIY AHVOL O'ZGARISHI**



Navoiy Davlat Universiteti doktoranti

Rustamova Dilafro'z Azamatovna

Annotatsiya: Ushbu tezisda XIX asr oxiri XX asr birinchi choragida Turkiston hududi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayoti haqida ma'lumot berildi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, mustamlaka, harbiy harakat, hukmronlig, general-gubernatorlik.

XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyon o'z mustamlakasiga aylantirish maqsadida podsho hukumatining olib borgan harbiy istilochilik yurishlari natijasida uning katta hududlari bosib olindi. Yo'qotishlar va talafotlarga qaramay, imperator Aleksandr II ning buyrug'i bilan navbatdagi harbiy rejalarini amalga oshirish davom ettirildi.

1865-yilda tashkil qilingan Turkiston viloyati O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarni olib borishda harbiy markaz rolini bajardi. Navbatdagi vazifa bosib olingan hududlarda podsho hukumati hukmronligini mustahkamlash va ma'muriy - hududiy birliklarni tashkil qilishdan iborat edi.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun bosib olingan joylarni o'z ichiga oluvchi ma'muriy-boshqaruv hudud, ya'nii alohida general-gubernatorlik tashkil etishga kirishildi. Buning sababi O'rta Osiyoning Orenburg general-gubernatorligidan uzoqda joylashganligi bo'lsa, boshqa yana bir sababi bu kelgusida bosib olinadigan yerkarni ham birlashtirish bo'lgan. Bu hududlarning imperiya tarkibida yana bitta general-gubernatorlik tashkil qilish uchun aholisi va hududi to'g'ri kelgan.



Shu bilan birga O'rta Osiyoda alohida general-gubernatorlikni tashkil qilish orqali uning geografik xususiyatlari, iqtisodi, tabiiy boyliklari, meneral resurslarini imperiya manfaatlariga har tomonlama moslashtirish edi. 1867-yilda bosib olingan hududlarni o'z ichiga oluvchi Turkiston general-governatorligi tashkil qilindi va Turkiston harbiy okrugi tuzildi. 1847-yildan boshlab harbiy istilochilik yurishlarida ishtirok etgan barcha harbiy qismlar uning tarkibiga kiritildi. Bu davrda Turkiston harbiy okrugidagi harbiylar soni 40 ming kishidan iborat bo'lgan. Toshkent shahri general gubernatorlikning markazi qilib belgilandi. U qulay geografik makonda joylashgan bo'lib, harbiy, siyosiy, strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlarga ega edi.

Turkiston general-governatori o'lkada joylashgan harbiy qo'shinlar qo'mondoni, Yettisuv kazaklari qismi qo'mondoni va shu bilan birga bosh sudya ham hisoblangan, Turkiston general gubernatorligiga 1867-yil Rossiya imperatori farmoniga ko'ra general-adyutant Konstantin Petrovich fon Kaufman (1867-1881) tayinlandi. U bir paytning o'zida Turkiston harbiy okrugining qo'mondoni ham edi. Yangi ma'muriy hududlarning tashkil qilinishi jihatdan ikkita viloyat: Sirdaryo (markazi Toshkent) va Turkiston general-governatorligi Turkiston viloyati va Semipalatinsk viloyatining janubiy qismini ham o'z ichiga oldi.

Dastlab Turkiston general-governatorligi ma'muriy Yettisuv (markazi Verniy) viloyatlariga bo'lingan. Sirdaryo viloyatining hududiga, asosan, 1865-yilda tashkil qilingan Turkiston viloyatiga tegishli bo'lgan yerlar va Qo'qon xonligining bosib olingan shimoliy hududlari kirgan. Yettisuv viloyati esa Semipalatinsk viloyatining Sergiopol, Kopal va Olatavsk okrugi yerlari va sobiq Turkiston viloyatining bir qismidan iborat holda tashkil qilindi.

Xulosa o'rnida, XIX asr oxiri XX asr birinchi choragida Turkiston hududida ijtimoiy iqtisodiy ahvol o'zgardi. Iqtisodiyot mustamlakachilar manfaatlariga bo'ysundirildi, mustamlaka tartiboti kuchaydi, paxta xomashyosiga bo'lgan talab ham oshdi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov B. Ismoilbek Gaspirali. Toshkent. 1992 y.

2. O'zbekistonning yangi tarixi. 1 kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T.: SHarq 2000